

## MAXTUMQULI IJODIDA HAYOT FALSAFASI

**Xaitbayeva Venera Mirzaliyeva,**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti, Qozoq tili va  
adabiyoti kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Maxtumquli ijodidagi hayotiy masalalar qamrab olingan. Xususan, millatlar ma'naviyatiga xos tarbiyaviy ahamiyatga molik jihatlarda hayot falsafasi bilan aloqadorlikda o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *siyosiy-ijtimoiy hodisalar, urf-odatlar va an'analar, badiiy meros, dard-hasrat, pand-nasihati, hayotiylik va xalq falsafasi.*

Maxtumquli badiiy so'zni juda yuksak qadrlagan va ijodiy qobiliyatga ega ma'rifatli inson bo'lgan. U bolaligida bo'sh vaqtlarida pada boqib, otasiga ko'maklashgan va 9 yoshidan she'r mashq qila boshlagan serqirra ijodkordir.

Turkman xalqining tarixi, buguni va ertasi, urf-odatlari, an'analari, davrining muhim siyosiy-ijtimoiy hodisalari, shoirning dardu hasratlari bu she'rlarning asosiy mavzuyi hisoblanadi. Bu she'rlarda shoir o'z xalqini sevgan, uning dardu hasratlari bilan yongan, istiqboli uchun qayg'urgan fidoiy vatanparvar sifatida namoyon bo'ladi. Vatan va xalq mavzusi – Maxtumquli she'riyatining o'q ildizini tashkil etadi. Qator she'rlarida tarqoq turkman urug'larini birlashishga, ular o'rtasidagi o'zaro nizolarni bartaraf etishga da'vat qiladi.

Shoir she'riyatining g'oyaviy-estetik xususiyatlari juda yuqori bo'lgan. Uning she'rlarida va xalq falsafasi kuchli, pand-nasihati asosiy o'rinda va u o'z ko'rgan-kechirganlarini qalamga olib, ular yuzasidan teran xulosalar chiqargan buyuk shoirdir. Bu fikrlarning go'yoki bir hikmat kabi jaranglashi shundan:

*Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang,  
Faqiru miskinga dalolat yaxshi.  
Baxilga uchramang–kular yuz bo'lmang,  
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.*

*Yetimni ko'rganda kular yuz bo'lgil,  
Qo'ldan kelsa unga taom – tuz bergil,  
Hamginni ko'rganda shirin so'z bergil,  
Chorasiz qullarga himoyat yaxshi.*

*Yigit uldir, so'zga aylasa amal,*

*Qo‘ldan kelmas ishga etmasa jadal,  
Ollohning amriga qilmagil badal,  
Bekka – saho, shohga – adolat yaxshi.*

(“Adolat yaxshi” she‘ri)

Maxtumorquli she‘riyatidagi yana bir jihat ishq-muhabbat mavzuyidagi she‘rlarining o‘ziga xos ohangdorligi, chuqur falsafiy mohiyatga egaligidadir. Uning hayot va o‘lim, inson va borliq, go‘zal insoniy fazilatlar va odob-ahloqqa oid she‘rlarida islom dini hamda tasavvufiy qarashlar ta‘siri yaqqol seziladi:

*Asli seni ko‘rmaganman, dildorim!  
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?  
G‘amgin dilni xayolingda aldarman,  
Bog‘ ichinda gul-gulmisan, namasan?*

*Qaroqchimi, yo sayidmi, xo‘jami?  
Yo soqiymi, yo sharobmi, yo jommi?  
Yo yilmisan, yo kunduzmi, kechami?  
Yo oymisan, yo kunmisan, namasan?*

(“Namasan” she‘ri)

*Maxtumorquli aytar: barcha nasihat –  
Ollohga qul boling, Rasulga – ummat,  
Bilsangiz, dunyoning barchasi hasrat,  
Hasrat bilan bir-bir ketib boradir.*

(“Ketib boradir” she‘ri)

Maxtumorquli turkman xalqining maqol va matallarini, xalq tiliga hos ayrim unsurlarni adabiyotga olib kirishda katta hizmat qilgan. Shoirning purma‘no misralari turkman millatining hikmatli so‘zlari, aforizmlar qatoridan o‘rin olgan.

Maxtumorquli xalq maqol-matallari, hikmatli so‘zlari, obrazli iboralarini juda yaxshi bilgan va mahorat bilan she‘rlarining mazmuniga singdira olgan. Binobarin, u o‘z she‘riyatida sodda, icham lo‘nda teran tarzda hikmatlar yaratadiki, ular nafaqat turkman, balkim barcha turkiy xalqlarning hikmatli so‘zlar xazinasidan joy olgan desak mubolag‘a emas:

*Mard yigitning or-qilichi  
O‘limga yondashsang, ochilar kozing,  
Johilga yondashsang, kordek, кўрдек бўларсан.  
Odam bor, ming tuman yedirsang ozdir,*

*Odam borki, yegan noniga yetmas.*

Xalq tarixi, adabiyoti va hayotini chuqur anglagan, teran mushohadali, o‘tkir qalam egasi bo‘lgan bu donishmand inson teran fikrlarni xalqona sodda va lo‘nda bir tarzda she‘riy misralarga tizadi. Bu she‘rlar xalq og‘zaki ijodi va donoligining yorqin ifodasidir. Maxtumorquli ijodining umrboqiyiligini ta‘minlagan eng asosiy omil ham xuddi shunda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxtumorquli. Dune‘y tib boradir: She‘rlar. – T.: «Sharq» 2007.
2. Bertel’s E. Maxtumorquli. – Ashgabat, 1975
3. Kosaev M. Maxtumorquli Frahi // Maxtumorquli (Sbornik statey).
4. Garriyev B.A Magtumorquli. – Ashgabat, 1975
5. Gurbanov T «Berqarar d’vlet islerin» // Magtumorquli – 250 (Nauchnye doklady, statey i soobsheniya o poete). - Ashgabat, 1989